

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyoti instituti
Kengashi 4-son majlis bayonnomasidan
KO'ChIRMA

28.11.2025 y.

Buxoro shahri

Rais: Sh.J.Teshayev

Kotib: H.Sh.Yaxyoyeva

Qatnashdilar: 73 nafar Ilmiy kengash a'zosidan 65 nafari

KUN TARTIBI:

7.4. Har xil masala

Eshitildi: Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori **Sh.J.Teshayev** so'zga chiqib, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida fuqarolarning murojaatlari O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi 2017-yil 11-sentabrdagi O'RQ-445-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga asosan ish olib borilmoqda.

Institutda **2025-yil noyabr oyi holatida** kelib tushgan murojaatlar jami 12 tani tashkil etadi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar soni 3 tani tashkil etadi.

Murojaatlarda ko'tarilgan masalalar: o'qishga ko'chirish va tiklash 6 ta, qabul masalalari 0 ta, turli masalalar 3 ta, mehnat munosabatlari 3 ta, moddiy yordam masalasi 0 ta, diplomini olish 0 ta.

Murojaat turlari: ariza -11 ta, shundan sayyor qabul – 2 ta, shikoyat - 1 ta, taklif - 0 ta.

Murojaatlarni ko'rib chiqish holati: tushuntirish ishlari olib borilgan - 5 ta, ijobiy hal qilingan murojaatlar soni - 7 ta, o'rganish jarayonida - 0 ta.

Muddatidan o'tgan murojaatlar yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi Hay'at yig'ilish va qarorlarning ijrosi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarining ijrosi borasida sifat bosqichiga o'tish hamda bu borada barcha mas'ullar tomonidan tizimga yuklanayotgan ijro hujjatlarining barchasi asoslanishi va sifatliiligiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi negizida ishlab chiqilgan "edo.ijro.uz" moduli orqali elektron hujjat aylanish tizimi orqali amalga oshiriladi. Mazkur tizim yordamida yuqori tashkilotlardan kelib tushayotgan topshiriqlar (OTFIV, SSV Apparat kengashi yig'ilish bayonnomalari, qo'shma qaror, buyruq, xat va boshqalar) ijro tizimida ro'yxatga olinmoqda. Bugungi kunda "Edo.ijro.uz" tizimiga institut

rahbariyatidan prorektorlar, bo'lim boshliqlari, dekanlar va kafedralardan jami 123 nafar mas'ul xodim ulangan.

2025-yil yanvardan shu bugungi kungacha institut devonxonasi tomonidan ijro tizimida ro'yxatga olingan OTFIV, SSV Apparat kengashi yig'ilish bayonnomalari, buyruqlari, toshiriq xatlari ijrosi yuzasidan muntazam nazorat o'rnatilgan hamda mas'ul ijrochilar tomonidan o'z vaqtida ijrosi ta'minlanib kelinmoqda.

Xususan, 2025-yil yanvardan shu bugungi kungacha hujjatlar (OTFIV, SSV Apparat kengashi yig'ilish bayonnomalari, qo'shma qaror, buyruq, xat va boshqalar) institut devonxonasi tomonidan ro'yxatga olinib "edo.ijro.uz" yagona idoralararo ijro intizomi tizimi orqali mas'ul ijrochilarga yetkazilgan.

Muddatidan kech bajarilgan soni 45 tani tashkil etmoqda. Bajarilmagan topshiriq yo'q.

Kelib tushgan hujjatlar ijrosi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazoratga olingan va ijrosi tegishli tartibda ta'minlanib, ma'lumotlari taqdim qilinganidan so'ng nazoratdan olinadi.

2025-yil noyabr oyida jami 410 ta topshiriqdan 407 ta topshiriq o'z vaqtida sifatli, qonunchilik hujjatlarida belgilangan holda bajarilgan. Muddati kechiktirilib bajarilgan topshiriqlar 3 ta:

1. Akusherlik va ginekologiya №2 kafedrasini mudiri D.I.To'qsanova tomonidan 7-noyabrdagi 2-T/1487-sonli Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti kafedrasining filialini tashkil qilish to'g'risida ichki buyruq ijrosi 17-noyabrda ijro muddatidan kechiktirib bajarildi.

Topshiriqning qisqacha mazmuni: BuxDTI filialini Buxoro tumanida ochish to'g'risida.

2. Terapevtik stomatologiya kafedrasini mudiri Z.Q.Raximov tomonidan 7-noyabrdagi 2-T/1487-sonli Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti kafedrasining filialini tashkil qilish to'g'risida ichki buyruq ijrosi 17-noyabrda ijro muddatidan kechiktirib bajarildi. Topshiriqning qisqacha mazmuni: BuxDTI filialini Vobkent tumanida ochish to'g'risida.

3. Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrasini mudiri O.M.Kurbanov tomonidan 7-noyabrdagi 2-T/1487-sonli Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti kafedrasining filialini tashkil qilish to'g'risida ichki buyruq ijrosi 17-noyabrda ijro muddatidan kechiktirib bajarildi. Topshiriqning qisqacha mazmuni: BuxDTI filialini Jondor tumanida ochish to'g'risida.

2025-yil 15-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 15-iyuldagi 02-867-sonli xati va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 13-avgustdagi 01/15-4-416-sonli topshirig'iga asosan, Buxoro viloyati mahallalarida aholi muammolarini o'rganish va hal etish, bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bilan manzilli ishlash kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan

ishlar holatini o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida aholi va yoshlarni qiynayotgan muammolarini tezkorlik bilan hal etishga qaratilgan sayyor qabullarni ilovada keltirilgan namunaviy reja-grafik asosida Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi deputati, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori Sh.J.Teshayev tomonidan Olót tumanining 1-ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida sayyor qabul o'tkazildi.

Tadbir davomida mahalla aholisi bilan ochiq muloqot tashkil etilib, ularning muammo va takliflari o'rganildi. Fuqarolar tomonidan tibbiyot sohasiga oid masalalar— davolanish jarayonlari, dori-darmon ta'minoti, shifokorlar xizmatidan qoniqish darajasi kabi savollar ilgari surildi. Har bir murojaat bo'yicha aniq, asosli va xolis javoblar berildi.

Sayyor qabul doirasida aholiga kengaytirilgan tibbiy ko'rik ham o'tkazildi. Ushbu jarayon Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasining professor-o'qituvchilari hamda malakali shifokorlari ishtirokida amalga oshirildi.

Tibbiy ko'rikda 20 nafarga yaqin yuqori malakali shifokor vaj professorlar qatnashib, aholining salomatligini chuqur o'rganish, kasallisklarni erta aniqlash va zarur tibbiy maslahatlar berish bilan shug'ullandi. Terapevt, nevropatolog, kardiolog, pediater kabi yo'nalishlardagi shifokorlar tomonidan 250 nafarga yaqin mahalla fuqarolari bepul ko'rikdan o'tkazildi. Shuningdek, bir qator bemorlarga qo'shimcha tavsiyalar va davolanish uchun yo'llanmalar berildi.

Tibbiy ko'rikda 20 nafarga yaqin yuqori malakali shifokor vaj professorlar qatnashib, aholining salomatligini chuqur o'rganish, kasallisklarni erta aniqlash va zarur tibbiy maslahatlar berish bilan shug'ullandi. Terapevt, nevropatolog, kardiolog, pediater kabi yo'nalishlardagi shifokorlar tomonidan 250 nafarga yaqin mahalla fuqarolari bepul ko'rikdan o'tkazildi. Shuningdek, bir qator bemorlarga qo'shimcha tavsiyalar va davolanish uchun yo'llanmalar berildi.

Qabul davomida aholi muammolarini o'rganish va hal etish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli ishlarni samarali tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Qabul ochiq, samimiy va do'stona ruhda o'tkazildi. Uchrashuvda fuqaro va talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar, taklif va tashabbuslar bilan murojaat qildilar. Bildirilgan takliflar institut rektori tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ushbu masalalar Kengash a'zolari tomonidan bir ovozdan tasdiqlandi. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Qaror qilindi:

7.4.1. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari hamda Prezident rahbarligida o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida berilgan topshiriqlarning ijrosi (ijro intizomi) va

“Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun ijrosi joriy yilning noyabr oyi bo‘yicha hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

7.4.2. Murojaatlar bilan ishlash holati tanqidiy muhokama qilib borilsin, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar belgilansin.

7.4.3. Edo.ijro.uz tizimida topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha doimiy monitoring olib borib, topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida bajarilishi nazoratga olinsin.

7.4.4. Ichki buyruqlarning ijrosini o‘z muddatida ta‘minlashda mas‘uliyatsizlik va sansalorlikga yo‘l qo‘ygan xodimlarga ogohlantirish berilsin.

7.4.5. 2025-yil 13-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 01/15-4-416-sonli topshirig‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida o‘tkazilgan sayyor qabul o‘tkazilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Kengash raisi

Kengash kotibasi



Sh.J.Teshayev

H.Sh.Yaxyoyeva